

IXTISOSLASHGA TA'LIM MUASSASALARI TUSHUNCHASI, MAQSAD, VAZIFALARI VA TA'LIM JARAYONI.

Qudratova Shahrizoda Oybek qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti geografiya kafedrası magistranti,

Buxoro, O'zbekiston, e-mail: shahiqudratova@gmail.com

Annotatsiya: maqolada hozirgi kunda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayoni va ularning faoliyati, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida geografiya faning o'qitish bo'yicha munosabatlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, maktab, ta'lim jarayoni, baholash, geografiya, amaliy ish, loyiha ishi.

THE CONCEPT, GOALS, OBJECTIVES, AND EDUCATIONAL PROCESS OF SPECIALIZED EDUCATIONAL INSTITUTIONS.

Qudratova Shahrizoda Oybek qizi

Master's student at the Department of Geography,

Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan,

e-mail: shahiqudratova@gmail.com

Abstract: The article describes the current educational process and activities in specialized educational institutions, as well as the relationship between teaching geography in specialized educational institutions.

Keywords: Education, specialized educational institutions, school, educational process, assessment, geography, practical work, project work

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda

yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Hususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, 30 dan ortiq xaqlaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi yo'lida zamonaviy, ilg'or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun O'zbekiston bor kuch va imkoniyatlarini ishga solmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e'tibor qancha kuchaytirilsa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — o'quvchilarning qobiliyat va iste'dodlarini erta aniqlash, ularni chuqur o'rgatish orqali yuqori malakali mutaxassis kadrlarni yetishtirishdir. Shu maqsadda ixtisoslashgan maktablar faoliyati juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ixtisoslashgan maktablar — o'quvchilarni muayyan yo'nalishlarda chuqurlashtirilgan tarzda o'qitishga ixtisoslashgan ta'lim muassasalari bo'lib, ular an'anaviy maktablardan o'quv dasturlarining murakkabligi, laboratoriya mashg'ulotlari, zamonaviy texnologiyalar va yuqori malakali ustozlar bilan farq qiladi. Ushbu ta'lim muassasalarini tashkil qilishdan maqsad:

— Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularni tizimli rivojlantirish.

— Tanlangan yo'nalishlar bo'yicha chuqur bilim berish.

— Ilm-fan, texnologiya va boshqa yo'nalishlarda yetakchi bo'ladigan yoshlarni tayyorlash.

Vazifalari:

- Chuqurlashtirilgan dasturlarni joriy etish.
- O‘quvchilarni saralash va qo‘llab-quvvatlash.
- Innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish (robototexnika, STEAM, IT).
- O‘quvchilarning ilmiy loyihalarda qatnashuvini ta‘minlash.
- Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Bunday maktablar o‘quvchilarni qiziqishi, moyilligi va salohiyatini hisobga olgan holda, muayyan yo‘nalishlarda chuqurlashtirilgan ta‘lim beruvchi maxsus o‘quv maskanlaridir. Mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning hayotga mustaqil qadam qo‘yishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz farmonlariga ko‘ra, Prezident ta‘lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida” 2022-yil 14-apreldagi PF-106-son Farmoni ijrosini ta‘minlash, shuningdek, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasida qaror qiladilar. Bunga ko‘ra har bir viloyatlardagi tuman markazlarida aniq va tabiiy fanlarga, sportga yo‘naltirilgan maxsus ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etildi. Prezident farmon asosida mamlakatimizda 193 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar Prezident ta‘lim muassasalari agentligi tizimida tashkil etiladi. Shundan 168 tasi 2022-2023 o‘quv yilida o‘z faoliyatini boshlamoqda. Mazkur maktablardan 23 tasi maktab internatlari bo‘lib, ularda yotoqxona ham mavjud. Qolgan 145 ta ixtisoslashtirilgan maktablar o‘quvchilar uyidan qatnab o‘qishlari uchun mo‘ljallangan. Yangi tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan maktablarga 2022/2023-o‘quv yili uchun hujjatlar qabuli 1 iyundan – 30 iyunga qadar onlayn shaklda ariza.piima.uz sayti orqali amalga oshirildi. Demak, yangi tashkil etilgan ixtisoslashgan maktablarda kimlar o‘qishi mumkin? Ixtisoslashtirilgan maktablarga nechanchi sinfdan qabul qilinadi? Maktablarning sig‘imi qanday bo‘ladi va qanday hujjatlar topshiriladi? Shu va shunga o‘xshash savollarg Prezident ta‘lim muassasalari agentligining ma’sul xodimiga, bir qator savollar bilan murojaat qildik.

– Ixtisoslashtirilgan maktablarga nechanchi sinfdan qabul qilinadi?

– 2022-2023-o‘quv yilida Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimiga o‘tkazilgan 168 ta ixtisoslashtirilgan maktablarning:

- aniq fanlar yo‘nalishiga 5-11-sinflarga;
- tabiiy fanlar yo‘nalishiga 7-11-sinflarga qabul bo‘lib o‘tadi.

– Maktablarning sig‘imi qanday bo‘ladi?

– Bu yili yangi tashkil etilayotgan 168 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar uchun avval Xalq ta’limi vazirligida bo‘lgan ayrim maktablar, shuningdek kollejlarning binolari ajratilgan. Shunga ko‘ra, ularning sig‘imi o‘sha binolarning hajmiga qarab belgilanadi. Deylik, ba’zi maktablarda 5-sinf o‘quvchilari uchun oltitagacha sinflar tashkil etilsa, ayrimlarida bitta sinf bo‘ladi. Har bir sinfda 24 nafardan o‘quvchi bo‘ladi. Yana bir jihati, ko‘pgina maktablarimiz ham aniq, ham tabiiy fanlarga yo‘naltirilgan. Ayrimlari esa faqat aniq fanlarga ixtisoslashgan bo‘ladi. Bu maktablarning binosi katta-kichikligiga ham bog‘liq bo‘ladi.

– Ixtisoslashtirilgan maktablarning qaysi sinflariga hujjatlar ko‘p topshirildi?

– Maktablarning 5-sinfi uchun talabgorlar soni ko‘p, chunki Prezident maktabiga tayyorlangan bolalar ixtisoslashtirilgan maktablarga ham ariza topshirib, imtihonlardan o‘tishmoqda. Eng kam talabgorlar 11-sinflar uchun qayd etildi.

– Yangi tashkil etilayotgan maktablarda o‘qish qachondan boshlanadi?

– Bu maktablarning ochilishi hokimiyatlarning ta’mirlash ishlarini qachon tugatishiga bog‘liq. Ko‘pchiligi sentyabr oyidan ochiladi, lekin ba’zilarida ta’mirlash oktyabr-noyabr oylarigacha davom etishi ham mumkin. Ungacha imtihondan o‘tgan bolalar o‘zlarining avvalgi maktablarida o‘qib turishadi yoki qaysidir maktablarimizda ikki smenali o‘qish tashkil etilishi mumkin.

– Imtihon natijalari qachon e’lon qilinadi?

– Ixtisoslashtirilgan maktablardagi imtihonlar yakuniga yetganidan so‘ng ikki hafta ichida natijalar e’lon qilinadi.

Qayd etish lozimki, 5-sinflarga natijalar alohida bo'ladi. Chunki bunda Prezident maktabiga kirish imtihonlarining birinchi bosqichidan o'tib, ikkinchi bosqichidan o'ta olmagan talabgorlar ariza yozib, ixtisoslashtirilgan maktablarga imtiyoz asosida kirishlari mumkin. Ularga 50 foizlik kvota ajratilgan. Toshkent shahri misolida oladigan bo'lsak, Prezident maktabi imtihonlarida 480 o'quvchi ikkinchi bosqichga o'tadi. Shundan ikkinchi bosqichda yuqori natija ko'rsatgan 24 nafari o'qishga kiradi, qolgan 456 nafariga poytaxtda yangi tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan uchta maktabga ixtiyoriy ravishda ariza topshirib, imtiyoz asosida kirish imkoniyati beriladi. Imtiyoz asosida kirishda balning yuqoriligiga qarab ustunlik beriladi.

Ushbu maktablardagi Ta'lim jarayonining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Chuqurlashtirilgan o'qitish.
2. Amaliy mashg'ulotlarga keng e'tibor.
3. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.
4. Differensial topshiriqlar.
5. Loyihaviy va tadqiqotga yo'naltirilgan o'qitish.
6. Raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'lim muhiti.

Ayni damda ixtisoslashgan maktablarning yutuqlari bo'lgani kabi, kamchiliklari ham mavjud. Ularni birma-bir ko'rib o'tamiz.

Ixtisoslashgan maktablarning yutuqlari

- Xalqaro fan olimpiadalarida yuqori natijalar.
- Zamonaviy laboratoriyalar va IT muhitining mavjudligi.
- Talabchan va malakali ustozlar faoliyati.
- Bitiruvchilarning yetakchi OTMlarga kirish ko'rsatkichining yuqoriligi.
- O'quvchilarni ilmiy-tadqiqot ishlariga keng jalb qilinishi.

Ixtisoslashgan maktablarning kamchiliklari

— Qabuldagi raqobat yuqoriligi sabab barcha iste'dodli yoshlar kira olmasligi.

— Ba'zi hududlarda laboratoriya jihozlari yetishmasligi.

— Katta yuklama tufayli o'quvchilar psixologik bosim ostida qolishi.

— Malakali pedagoglar yetishmovchiligi ayrim joylarda seziladi.

— Chuqurlashtirilgan fanlar bilan shug'ullangan o'quvchilarda umumiy rivojlanish fanlari chetda qolishi mumkin. Ixtisoslashgan maktablar mamlakatning ilmiy va intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi eng samarali ta'lim muassasalaridan biridir. Ularning faoliyatini yanada takomillashtirish orqali raqobatbardosh, bilimli va iste'dodli yosh avlodni tarbiyalash mumkin. Ixtisoslashgan maktablarda barcha fanlar churlashtirilgan holda, umumta'lim maktablarining darsliklaridan va o'quv rejalaridan farq qilgan holda tashkillashtiriladi. Baxolash tizimi ham umumta'lim maktablaridan farq qilib uch bosqichda olib boriladi:

1) Formativ baholash(har darsda berilgan vazifalarni baxolash orqali)

2) Bilimlarni summativ baholash(nazorat shaklida)

3) Choraklik summativ baholash(bir chorak davomida olingan bilimlarni baholash orqali).

Ixtisoslashtirilgan maktablarda ixtisos fanlaridan boshqa fanlar ham xuddi shu uslubda o'qitiladi. Buning yorqin na'munasi sifatida geografiya fanini ko'rib chiqamiz. Geografiya fani hozirga kunda ixtisoslashtirilgan maktablarda 7-8-9- sinflarda o'qitiladi. 7-sinfda materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasini, 8-sinfda O'zbekiston tabiiy va iqtisodiy geografiyasini, 9-sinfda esa jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi o'qitiladi. Bu maktablardan keskin farq qiladi. Maktablar 10- sinfda ham geografiya fani o'qitiladi.

Ixtisoslashgan maktablarda geografiya darslari yangi mavzu, amaliy mashg'ulot va loyiha ishlari ko'rinishida olib boriladi. Ya'ni ko'proq o'quvchimi mustaqil ishlashi uchun darslar yo'naltiriladi. Ma'lumot uchun: yangi tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan

maktablarga o'qishga hujjat topshirgan o'quvchilarga imtiyoz Prezident ta'lim muassasalari agentligi tomonidan tasdiqlangan Xalqaro, mintaqaviy va asosiy fan olimpiadalariining matematika, fizika, kimyo, biologiya, hamda informatika va axborot texnologiyalari fanlaridan viloyat bosqichida 1-2-3 o'rinni egallagan 9-10-11 sinf o'quvchilariga tatbiq etiladi.

Hozirgi kunda maktabda geografiya ta'limida o'qituvchi o'quvchilarni faollashtiradigan, o'zi o'rganishi uchun qulay bo'lgan uslublarni o'qitish shakllarini, vaziyatlarini izlaydi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'gatib, o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishadi. Geografiya ta'limida pedagogik texnologiya, ta'lim-tarbiya jarayoni sifatida ishtirokchilarning faoliyatlari orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonning maqsadi barkamol insonni shakllantirish va rivojlantirish bo'lib, asosan quyidagilardan tashkil topadi:

- ta'lim-tarbiya berish;
- axborotlarni uzatish;
- mustaliq fikrlashga o'rgatish;
- bilim-ko'nikma, malakalarni o'rgatish va o'zlashtirilishiga erishish;
- turli usul va uslublarni qo'llash;
- diagnostika, monitoring olib borish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida insonparvarlik, vatanparvarlik tamoyillariga asoslanish;
- o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini, psixologik va fiziologik talablarni hisobga olish lozim.

O'quvchilar geografiyani o'rganar ekan, tabiatning va jamiyatning o'zgarishini va rivojlanish qonuniyatlarini tushunib boradilar, tabiat qonuniyatlaridan jamiyat manfaatlari uchun foydalanishni o'rganadilar. O'quvchilarning dunyoqarashlarini tarbiyalash uchun ularda fanning yuksak darajada rivijalib borayotganini ko'rsatish, geografik tadqiqot metodlarini o'rgatib borish muhim ahamiyatga ega. Bular o'quvchilarga tabiatni bilish

qobiliyatlarini ochib, undan o'z manfaatlarida yo'lida foydalanish mumkin degan fikrga kelish imkonini beradi.

Ixtisoslashgan maktablar bugungi globallashuv sharoitida raqobatbardosh, ilmiy-intellektual salohiyatga ega yosh avlodni tarbiyalashda muhim strategik ta'lim platformasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Dunyo miqyosida sodir bo'layotgan jadal ilmiy-texnik taraqqiyot, sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, yuqori texnologiyalar asosida shakllanayotgan yangi jamiyat talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash jarayonida bunday maktablar yetakchi o'rinni egallaydi. O'zbekiston ta'lim tizimida ham ixtisoslashgan maktablar tarmog'ining kengaytirilishi yoshlarni erta kasbiy yo'naltirish, ularning iste'dod va qobiliyatini chuqur rivojlantirish, ularga xalqaro standartlarga mos ta'lim berish imkonini yaratmoqda.

Ixtisoslashgan maktablar faoliyati nafaqat o'quvchining bilim olish jarayonini chuqurlashtiradi, balki uning mustaqil fikrlashi, ijodiy tafakkurini shakllantiradi, ilmiy izlanish olib borish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, loyihaviy izlanishlar, laboratoriya ishlari, fan olimpiadalari, xalqaro tanlovlar va amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarda nafaqat bilim, balki muammolarni hal qilish, tahliliy fikrlash va amaliy tajriba to'plash imkoniyatini yaratadi. Bu esa ular uchun kelajak kasbiy faoliyatida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ixtisoslashgan maktablar mamlakatning ilm-fan, texnologiya, innovatsiya yo'nalishlaridagi taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. Zero, bunday maktablarda yetishib chiqqan yoshlar keyinchalik O'zbekistonning yetakchi ilmiy markazlari, oliy ta'lim muassasalari va strategik ahamiyatga ega sohalarning poydevorini tashkil etuvchi mutaxassislar safini to'ldiradi. Bu esa ta'lim tizimining umumiy sifatini yuksaltirish, iqtisodiyotning ilmiy asosda rivojlanishi, jamiyatda bilimga ehtiyojning ortishi kabi ijobiy jarayonlarni kuchaytiradi. Ixtisoslashgan maktablarning faoliyatida mavjud ayrim muammolarni ham e'tirof etish lozim. Jumladan, ayrim hududlarda zamonaviy laboratoriya jihozlarining yetishmasligi, o'quvchilar uchun yuklamaning yuqoriligi, tajribali pedagoglar yetishmovchiligi, qabuldagi kuchli raqobat sabab iste'dodli yoshlarning hammasi o'qishga kirish imkoniga ega emasligi kabi masalalar tizimning yanada takomillashtirilishi zarur ekanligini

ko'rsatadi. Ushbu muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish orqali ixtisoslashgan maktablarning samaradorligini yanada oshirish, ularni xalqaro ta'lim maydonida raqobatbardosh darajaga ko'tarish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ixtisoslashgan maktablar — yosh avlodning yorqin kelajagini shakllantirishda, jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirishda, mamlakatning iqtisodiy va ilmiy rivojida muhim rol o'ynaydigan ta'lim maskanidir. Ularning bugungi kundagi rivoji, hukumat tomonidan yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar, modernizatsiya jarayonlari va ilm-fanga bo'lgan e'tibor kelajakda O'zbekistonni yangi avlod innovatorlari, olimlari, texnologlari va yetakchilari bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa mamlakat taraqqiyotining mustahkam kafolati, modernizatsiya jarayonlariga asosiy turtki bo'luvchi omildir. Shunday ekan, ixtisoslashgan maktablar tarmog'ini qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim sifatini yuqori darajada tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni, 1-aprel 2024-yil, UP-55 — "Ixtisoslashgan maktablar tarmog'ini kengaytirish va takomillashtirish chora-tadbirlari".
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14-aprel 2022-yilgi farmoni — "Ixtisoslashgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida".
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-sentyabr, UP-5815 farmoni — Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablar agentligini tashkil etish to'g'risida.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablarni rivojlantirish agentligi haqidagi nizom.
6. Abdullayeva Q., Sayfullayeva R. "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti", Toshkent, 2020.
7. Hasanov A. "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari", Toshkent, 2019.
8. Jalolov J. "Ta'lim tizimida innovatsion metodlar", Toshkent, 2021.

9. UNESCO, “Specialized schools and gifted education”, 2018
10. Mo‘minov O. Geografiya ta’lim metodikasi. -T.,1986.
11. Ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari. Trenerlar uchun qo‘llanma, -T.,2002.
12. G‘ulomov P.N. O‘zbekistonda tabiatdan foydalanishning geografik asoslari. T., Universitet.1990.
13. G‘ulomov P.N. Geografiya va tabiatdan foydalanish. -T., O‘qituvchi.1985.
14. UNESCO. Specialized schools and gifted education: pedagogical approaches. – Parij, 2018.
15. OECD. Education for innovative societies in the 21st century. – 2019.
16. World Bank. Education Quality Improvement Report. – Washington, 2020.
17. www.lex.uz.